

O'ZBEKISTONDA OILA VA OILA-NIKOH MUNOSABATLARIGA MIGRATSIYANING TASIRI



I.M.Xo'jageldiyev

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti, "Ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi davrda oilaning holati va rivojlanishiga, oila – nikoh munosabatlariga, aholining oilaviy tarkibiga migratsiya jarayonlari bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ta'kidlash joizki migratsiyaning ijtimoiy demografik nuqtai nazardan salbiy oqibatlari borgan sari yaqqol namoyon bo'lmoqda. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, mehnat migratsiyasi oilada avvaldan shakllangan yaxshi munosabatlarga putur yetkazib, keyinchalik oila, nikoh munosabatlarining va respublikadagi demokratik holatning yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Bunday muammolar davlat hamda ma'muriy tashkiliy tuzilmalar jamoat tashkilotlari e'tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Kalit so'zlar: Oila, nikoh, migratsiya, yoshlar, BMT, mehnat migratsiyasi, mehnat bozori.

Aholi migratsiyasi – murakkab ijtimoiy – iqtisodiy hodisa bo'lib, kishilar va jamiyat hayot faoliyatining juda ko'p tomonlariga ta'sir ko'rsatadi. Insoniyatning taraqqiyoti boshlangan davirdan to hozirgi kunga qadar kishilar bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yuradilar, yani migratsiya jarayonlarida ishtirok etadilar. Qadimda urishlar, ocharchilik, yangi yerlarni o'zlashtirish va boshqalar migratsiyaga sabab bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda kishilar ishlash yoki o'qish uchun oilaviy sharoit taqozasi bilan yoki o'z hayotini yaxshilash umidida bir joydan ikkinchi joyga ko'chib o'tadilar.

BMT assambleyasining 1990 yil 18 – apreldagi evaliyutsiyasi bilan qabul qilingan mehnat migrantlari va ularning oilalarini barcha huquqlarini himoya qilish to'g'risida konvensiyaga muvofiq "mehnat migranti" iborasi "o'z fuqorasi bo'lmagan mamlakatta pul to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan, shug'ullaniyotgan yoki shug'ullangan shaxsni ifodalaydi"[1].

Hozirgi kunda migratsiyaning asosiy oqimi mehnat migrantlaridan tashkil topadi, ya'ni kishilar o'z muqim yashash joylarini tark etib, boshqa joylarga yashash uchun yo'l oladilar. Bir tomondan, jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlari, iqtisodiotlari internasionallashuvi ikkinchi tomondan mamlakatlarning iqtisodiy va demografik rivojlanishidagi tafovutlar xalqlar migratsiya jarayonlari miqiyoslarini oshib ketishiga olib keldi.

O'zbekiston aholisi ham migratsiya jarayonlarida doimo ishtirok etib kelgan. Respublika tadqiqotchilari va xalqaro tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan sotsologik so'rovnoma natijalari O'zbekiston fuqarolari boshqa mamlakatlarga doym yashash uchun ketishini hohlamasliklarini, ular o'z vatanparvarlik yashash, lekin vaqti-vaqti bilan boshqa yurtlarga borib pul ishlab kelishini afzal bilishadi. Bir necha yil avval Gellob tadqiqotlar xizmat muttaxislari tomonidan sobiq ittifoqning 10 ta davlatida jamoatchilik fikri o'rganilganida, 6% O'zbekistonliklar o'z davlatidan butinlay ketish niyatini bildirishgan (Belarusiyada – 20%, Maldiviyanadan – 36%, Armanistondan – 39%) shu bilan birga so'rovda ishtirok etgan 24% O'zbekistonliklar ishlagani chet elga borish istagini bildirishgan[2].

Tadqiqotlarda keltirilishicha, O'zbekistonda 1989 yilda yalpi migratsiya hajmida 897,4 kishini tashkil qilgan. Ushbu yillar davomida Respublika bo'yicha 11428,7 ming kishi migratsiya jarayonida ishtirok etti. Shundan 4862,9 ming kishi mamlakatga ko'chib kelish jarayonida, 6565,8 ming kishi ko'chib ketish jarayonida qatnashganlar hisoblanadi[3].

Migrantlarni yuboriyotgan mamlakatlar uchun mehnat migratsiyasi katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Mehnat migrantlari tomonidan jo'natilayotgan pul o'tkazmalari iqtisodiy o'sish va aholining turmish darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. 2016 yilda Rasiyadan O'zbekistonga o'tkazilgan pul o'tkazmalari miqdori 2.7 milliard dollorni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2013 yilda 3.5 milliard dollar bolgan edi[4].

Pul o'tkazmalarining ma'lum bir qismi farzandlarning ta'limi va oilaviy tadbirkorligini qo'shib hisoblaganda ularning rivojlanishi uchun sarflanadi. Lekin mehnat migratsiyasining ommoviy tus olishi ma'lum ma'noda salbiy ijtimoiy geografik oqibatlarga olib keladi.

Migratsiya jarayonlarida asosan yosh va o'rta yoshdagi aholi ishtirok etadi. Ularning aksariyati oilaliy bo'lib daramad topish maqsadida chet ellarga oilasini 1 yoki 2 yilga, ba'zi hollarda undan ko'proq vaqtga tark etadi. Oilaning 1 yoki 1 nechta a'zosining uzoq vaqtga uydan ketishi shakllangan oilaviy munosabatlarni izdan chiqaradi. Migrantlar orasida o'tkazilgan tadqiqotlar (2015 yilda) Mehnat migrantlarining 35 – 40% oila a'zolari bilan kam muloqat qilishligini, 10 – 15% esa aloqosi yoqligini aytgan bo'lsa, migrantlarning har 4 tadan 1 tasini oiladan ko'p vaqt uzoqda bo'lish oilaviy muomolarni keltirib chiqarishni, yaxshi munosabatlarga salbiy ta'sir o'tkazishini takidlaydi[5]. Migrantlarni qabul qilayotgan mamlakatlarda erkak migrantlar ko'pincha yangi oila quradilar[6]. Bularning barchasi oilani buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa o'z navbatida bolalarning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oilasi bilan birga ishlash uchun xorijga ketgan taqdirda farzandlarning o'qishi va ta'lim olish bilan bog'liq muammolar yuzaga keladi. Migratsiya jarayonlari o'zbek oilalarida an'anaviy qadriyatlar yo'qolib borish xavfini yuzaga keltiradi[7]. Oila ilmiy – amaliy markazi tomonidan FHDYO va sud organlarida ayollar tomonidan ajralish uchun berilgan davo arizalarni o'rganilgan 4,6 % ayollar erlarini chet elga pul topish uchun ketib oilasidan xabar olmay qo'yanligi sabab qilib ko'rsatganlar. Buning natijasida qaynona va kelin o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelganligi bois ayolni turmush o'rtog'i oylab qiziqmay qo'yan yoki borgan joyida uylangan yoki aksincha erini kutishni xohlamagan ayol boshqa oila qurishni niyat qilgan.

Jarayonlarida ishtirok etayotgan kishilarning ko'pchiligi sog'ligi yomonlashganligi ularning ayrimlari turli yuqumli kasalliklar bilan yurtlariga qaytayotganlik holatlari uchramoqda[8]. Noqulay talabga javob bermaydigan sanitar gigiyenik sharoitlarga yashab ishlaganliklari ayrim hollarda joylardagi politsiya va ma'muriy idoralar xodimlari tomonidan taqibga uchraganliklari sabab ularning ruhiyatlariga muammolar paydo bo'lmoqda. Juda ko'p migrantlarning mehnat sohasidagi, jumladan ish haqi va mehnat sharoitlaridagi huquqlarning buzilish holatlari kuzatilmoqda.

Migrantlarning ko'pchiligi xorijga ishlash uchun oilasi bilan birga ketadi. Bu ma'lum monoda oilaviy muammolarni hal qiladi. Lekin bolalarning o'qishi va tarbiyasida bir qator qiyinchiliklar ham paydo qiladi. Rossiyalik olimlarning tadqiqotlari natijalariga ko'ra migrantlarning farzandlarini ta'lim olish imkoniyatlari chegaralangan. MDH mamlakatlarida ota – onalari bilan kelgan minglab bolalar maktab va bog'chaga bormaydi[9]. Migrantlarning bolalari rus tilini yaxshi bilmaganligi sababli ularni maktabga olishni istashmaydi. Agar maktabga borgan taqdirda ham o'qish va ko'nikmalarda bir qator muammolar kelib chiqadi[10]. Rus tilini tayyorlov sinflari 3 foizdan 12 foizgacha O'zbekistonlik bolalar jalb qilingan. Markaziy osiyo mamlakatlaridan borgan migrantlar bolalarning ko'pchiligi maktabga qatnashmaydi ish faoliyatini o'smirligidan boshlaydi yoki o'zidan kichik yoshdagi ukalariga qarab o'tiradi[11].

Keyingi paytlarda asosan erkaklar ishtirok etayotgan tashqi va ichki mehnat migratsiyasi katta ekanligi bilan bog'liq oilaviy muammolarning dolzarbligi ortib bormoqda. Yuqorida tadqiqotlangandek migratsiya jarayonlari ancha katta iqtisodiy Samara berish bilan birga migrantning oilasi uchun juda ko'p salbiy ijtimoiy demografik oqibatlar ham keltirib chiqaradi, uy xo'jaligini yuritish va oilaga xizmat qilish bo'yicha asosiy og'irlik ayollarning yelkasiga tushadi migrantlarning salomatligi yomonlashadi oilaviy munosabatlar murakkablashadi bolalar tarbiyasiga kam e'tibor ko'rsatiladi ba'zi hollarda oilalar buzilib ketadi.

Migratsiya sabab yoshlarida qadriyatlar transformatsiyaga uchramoqda. Bunda ijtimoiy – psixologik oqibatlar ham muhim hisoblanadi. Ayniqsa ayollar ko'p holatlarda huquqlarining buzilish holatlariga duch keladilar[12].

O'zbekiston ichki ishlar vazirligining ma'lumotlariga ko'ra 2016 yilda respublikada 366 ta ayol trafik qurboni bo'lgan. Lekin odam savdosidan aziyat chekkanlar orasida faqat ayollar emas erkaklar ayniqsa yosh yigitlar ham uchraydi. Ish haqi yaxshi hayot mehnat bozoriga talab katta bo'lgan yangi kasblarga o'rgatish vadasi bilan yosh yigitlar yo'llanadi va ular og'ir sharoitlarda majburlab ishlatiladi. Ularni qul qilib sotib yuborish holatlari ham uchraydi.

Shunday qilib mehnat migratsiyasi demografik vaziyat va mehnat bozori holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi va salbiy oqibatlarining keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham mehnat migratsiyasini tartibga solish bo'yicha ta'sirli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'tkazgan tadqiqotlarimi shuni ko'rsatadiki O'zbekiston sharoitida migratsiya jarayonlarini tartibga solishning asosan ikkita yo'nalishi samarali bo'lishi mumkin.

Birinchi yo'nalish bu aholining doimiy yashash joylarida ularni ishga joylashishlari uchun imkoniyatlarni kengaytirish orqali mehnat migratsiyasi miqyoslarini oshib ketmasligiga qaratilgan siyosatni izchil amalga oshirish.

Shu maqsadda:

- iqtisodiyotning yangi real va barqaror ish joylarini yaratish imkoniyatlari katta bo'lgan bazaviy tarmoqlarini imkon boricha mustahkamlash;

- xotin-qizlarni iqtisodiyotning rasmiy sektorligi jalb qilishning yo'nalishi sifatida ishlab chiqarish sohasi tarmoqlarida yangi ish joylarini yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni faollashtirish;

- Kichik shahar tumanlar va qishloq joylarida ishchi kuchiga bo'lgan talabni shakllantirish va ish bilan band bo'lmagan aholini ishga joylashtirish va shuningdek izchil ishsizlarni kasbga o'qitish bo'yicha hududiy va joylardagi mehnat organlari faoliyatini samaradorligini oshirish;

- qishloq xo'jaligiga va mahalliy xom ashyodan foydalanish hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan ko'p mehnat talab qiladigan ishlab chiqarish turlarini rivojlantirishni kuchaytirish;

- mehnat bozoridagi holat keskin bo'lib ish bilan band bo'lmagan aholi o'lishi yuqori bo'lgan hududlarda barqaror ish joylarini yaratish bo'yicha maqsadli investitsion dasturlarini ishlab chiqish;

- ish haqi va ish rejimlariga yangicha yondoshuv asosida xotin-qizlarni mehnat bozoriga raqobatbardoshligini oshirishni iqtisodiy omillarni ko'chaytirish;

- oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashi ta'minlash yoshlarni ayniqsa qishloq yoshlarini biznes asoslariga o'rgatishda tajribasini amalga oshirish yakka tartibdagi tadbirkorlarga yoshlar va xotin-qizlarga malum imtiyozlar berish ko'zda tutgan holda mikrokreditlar berish tizimidan keng foydalanishga yordam berish;

- milliy va lokal mehnat bozorlaridagi holat to'g'risida yoshlarda obyektiv bilimlarni shakllantirish maqsadida respublikaning barcha hududlarida kasbga yo'naltirish ishlarini yaxshilash;

- respublika hududida shu jumladan Toshkent shahrida boshqa hududlardan kelayotgan mehnat migrantlarini vaqtinchalik ishga joylashtirish masalalarida bandlikka ko'maklashish markazlari ishini tartibga solish ularni ro'yxatga vaqtinchalik ishga olish prededurasini soddalashtirish va korrupsiya elementlariga yo'l qo'ymaslik choralari ishlab chiqish;

- ish bilan bandlik mehnat migratsiyasi muammolarini hal etishda hokimiyatlar va mahalla fuqarolar yig'ini ishtirokini faollashtirishni taminlash. Yoshlar, xotin-qizlar va aholini ijtimoiy zayf qatlamlari uchun yangi ish joylarini tashkil etish bo'yicha huquq va imkoniyatlaridan to'liq foydalanmaydilar.

Taklif etilgan chora-tadbirlar joylardagi mehnat bozorlarida ishchi kuchiga talab va takliflar soni va sifat jihatdan muvozanatga yaqinlashtirish aholini mehnat solohiyatidan mehnat resurslari shakllanayotgan joylarda foydalanish darajasini oshirish imkonini beradi. Oqibatda ular aholida xorijga borish, borib ishlash motivatsiyasini susaytirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Права человека: Изложение фактов. Права трудящихся мигрантов /Всемирная компания за права человека. ООН Женева 1997 С.33
2. Электронный ресурс : NA REGNUM 05.08.2010
3. Tojiyeva Z.N : O'zbekiston Respublikasida domografik jarayonlar va ularning hududiy hususiyatlari . Geografiya fan doct dis .avto T217.20 B
4. Internet O'zbekiston T:AN Padrobne uz
5. Максакова. Л. П.тенденция демографического развития Узбекистана. Электронная версия-бюллетеня, население и общество. В 2014. С 17

6. Здоровье трудовых мигрантов.бюллетен. МИРПАЛ.сентябрь в 2012 С.5.
7. Полетаев д-дети без детства, журнал "миграция XXI век" Ne (17). С.. 21
8. Здорово трудовых мигрантов бюллетен. МИРПАЛ. Сентябрь 2012
9. Полетаев д-дети без детства, журнал "миграция XXI век" Ne (17). С.. 21
10. Ивойлова и мигранты на обучение-журнал "миграция". 21 век номер 2. 17. 2013 с34-35.
11. Полетаев д-дети без детства, журнал "миграция", 21 век номер 217-2013 с 22-23.
12. Женщины э мигранты из стран снг в России под ред э в тюрюкановой м Макс пресс-2011.